

## CHILPIQ: AFSONALAR QURSHOVIDAGI IKKI MING YILLIK QAL'A

Yovmudboyeva Mohira Azimjon qizi

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti Tarix fakulteti 202-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola O'zbekiston hududida, xususan Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumanida joylashgan qadimiy Chilpiq qalasining tarixiy, arxeologik va madaniy ahamiyatini ilmiy asosda yoritadi. Tadqiqotda Chilpiqning paydo bo'lish davri, funksional mohiyati, Zardushtiylikdagi "daxma" an'analari bilan bog'liqligi, antik va o'rta asr manbalaridagi eslatmalar, shuningdek, Orolbo'yi sivilizatsiyasida mazkur yodgorlikning tutgan o'rni ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, qal'aning arxitektura xususiyatlari, xo'jalik-madaniy tizimdagi roli, O'zbekiston hududidagi boshqa dahma tipidagi inshootlar bilan qiyosiy tahlili ham keltiriladi. Maqola so'nggida Chilpiq qalasining bugungi kungacha saqlanishi, xalqaro ilmiy ekspeditsiyalar tomonidan o'rganilishi va jahon madaniy merosidagi o'rni yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Chilpiq qalasi, Amudaryo, Orolbo'yi sivilizatsiyasi, Zardushtiylik, daxma, arxeologiya, qadimgi Xorazm, O'zbekiston yodgorliklari, diniy marosimlar, arxeologik ekspeditsiya, S.P. Tolstov; paxsali devor, Orolbo'yi madaniyati, qadimiy inshootlar, Osuriya an'analari, tarixiy yodgorlik, O'zbekiston madaniy merosi.*

**Annotation:** *This article provides a scholarly analysis of the historical, archaeological, and cultural significance of the ancient Chilpiq fortress located in the Amudarya district of the Republic of Karakalpakstan, Uzbekistan. The study examines the origins of Chilpiq, its functional purpose, its connection with Zoroastrian "dakhma" traditions, and references found in ancient and medieval sources. Furthermore, the article offers a comparative analysis of Chilpiq with other similar dakhma-type structures in Uzbekistan, while also exploring the architectural characteristics of the fortress and its role within the socio-economic and cultural system of the Aral Sea civilization. The conclusion highlights the preservation of Chilpiq up to the present day, its study by international archaeological expeditions, and its place within the world cultural heritage.*

**Keywords:** *Chilpiq fortress, Amudarya, Aral Sea civilization, Zoroastrianism, dakhma, archaeology, Ancient Khwarezm, heritage of Uzbekistan, religious rituals, archaeological expedition, S. P. Tolstov, mud-brick walls, Aral Sea culture, ancient structures, Achaemenid traditions, historical monument, cultural heritage of Uzbekistan.*

**Аннотация:** *В данной статье научно рассматривается историческое, археологическое и культурное значение древней крепости Чилпик, расположенной на территории Амударьинского района Республики Каракалпакстан, Узбекистан. В исследовании анализируются происхождение Чилпика, его функциональная сущность, связь с зороастрийскими традициями «дахма», а также упоминания в античных и средневековых источниках. Кроме того, статья представляет сравнительный анализ Чилпика с другими сооружениями типа дахма на территории Узбекистана, раскрывает*

*архитектурные особенности крепости и её роль в хозяйственно-культурной системе цивилизации Приаралья. В заключительной части освещены вопросы сохранности Чиллика до наших дней, изучение памятника международными археологическими экспедициями и его место в мировом культурном наследии.*

**Ключевые слова:** *крепость Чиллик, Амударья, цивилизация Приаралья, зороастризм, дахма, археология, древний Хорезм, памятники Узбекистана, религиозные обряды, археологическая экспедиция, С. П. Толстов, сырцовая кладка, культура Приаралья, древние сооружения, ассирийские традиции, исторический памятник, культурное наследие Узбекистана.*

Orolbo‘yi sivilizatsiyasi Markaziy Osiyo tarixida o‘ziga xos murakkab madaniy jarayonlar, qadimiy e’tiqodlar va arxitektura an’analari bilan alohida ajralib turadi. Aynan shu hududda joylashgan Chilpiq qalasi – milodiy I-IV asrlarga oid noyob yodgorlik bo‘lib, u Zardushtiylik diniy marosimlarining markazlaridan biri sifatida dunyo ilm-fanida alohida e’tirof etiladi. Ushbu yodgorlik o‘zining arxitektura tuzilishi, funksional vazifasi, diniy-falsafiy mazmuni, shuningdek, tarixiy manbalarda qayd etilgan “daxma” marosimlari bilan bog‘liqligi sababli arxeologiya, etnologiya, dinshunoslik va tarix fanlari uchun qimmatli ob’ekt sanaladi. Chilpiq qalasi Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Amudaryo tumani arxeologik majmuasining eng muhim obidalaridan biridir. Mazkur yodgorlik Amudaryoning qadimgi irmoqlari bo‘yida joylashgan bo‘lib, taxminan 2700 yillik tarixga ega deb hisoblanadi. Uning asosiy ko‘rinishi – baland doira shaklidagi sun‘iy tepalik ustiga qurilgan mudofaa devoridir. Qal’a diametri taxminan 65–70 metrni tashkil qilsa, devorlarining dastlabki balandligi 15 metrdan oshgan bo‘lishi ehtimol qilinadi. Bugungi kunda devorlar yemirilgan bo‘lsa-da, asosiy arxitektura silueti hali ham aniq ko‘rinib turadi.

Chilpiq qadimda Zardushtiylikdagi “daxma” – ya’ni marhumlarning jasadi yerga ko‘milmasdan, qushlar tomonidan tozalab yuborilishi uchun baland joyga qo‘yiladigan maxsus diniy inshoot funksiyasini bajargan deb e’tirof etiladi. Bunday daxmalar qadimiy Eron, So‘g‘d, Baqtriya, Xorazm va Orolbo‘yi hududlarida mavjud bo‘lgan. Chilpiqning aynan shu vazifaga xizmat qilganini tasdiqlovchi dalillardan biri – u qurilgan tepalikning sun‘iy ravishda balandlashtirilganligi, hamda devor tepasida marosimlarni kuzatish uchun maxsus maydonchalarning mavjudligidir.

Arxeologik tadqiqotlar davomida Chilpiq atrofida marhumlarga oid hech qanday ko‘milma topilmagani ham uning daxma sifatida ishlatilganini yana bir bor tasdiqlaydi. Chunki Zardushtiylikda tuproqni “mukaddas unsur” sifatida bulg‘amaslik tamoyili mavjud bo‘lgan. Shu sababli jasadlar maxsus inshootlarda tabiiy yo‘l bilan parchalanganidan so‘nggina suyaklar alohida idishlarda saqlangan yoki ossuariy deb ataluvchi kichik qutilarga joylangan.

Chilpiq qalasi ilk bor XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rus sayyohlari hamda sharqshunoslari tomonidan qayd etilgan. XX asrda S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi mazkur yodgorlikni tizimli ravishda o‘rganib, uning davriy qatlamlari, qurilish bosqichlari va diniy marosimlardagi o‘rni haqida ilmiy xulosalar

bergan. Tolstov Chilpiqni Orolbo‘yi hududidagi eng qadimiy va muhim diniy markazlardan biri sifatida baholagan.

Chilpiq qalasining qurilishida asosan paxsali devorlar, xom g‘isht va mahalliy tabiiy materiallardan foydalanilgan. Qal‘a devorlarining aylana shaklda qurilishi diniy e‘tiqoddagi kosmik tasavvurlar – “doira mukammallik va abadiylik ramzi” tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, balandlikning tanlanishi ham tasodifiy emas: qadimgi zardushtiylar uchun yuksak joylar “osmon va yer orasidagi muqaddas tutashuv nuqtasi” sifatida qabul qilingan. Yodgorlik Aralbo‘yi madaniyatining keyingi bosqichlarida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Milodiy VI-VII asrlarda Chilpiq atrofida yangi aholi punktlari, qishloq xo‘jaligi yerlari, sug‘orish tizimlari paydo bo‘lgan. Biroq VIII asrdan boshlab islomning keng tarqalishi bilan daxmadan foydalanish taqiqlangan va Chilpiq diniy markaz sifatidagi faoliyatini to‘xtatgan. Shunga qaramay, uning arxitektura qoldiqlari xalqlar xotirasida “muqaddas tepalik”, “ajdodlar ruhi bilan bog‘liq joy” sifatida saqlanib qolgan.

Yodgorlikning nomi ham diqqatga sazovordir. “Chilpiq” so‘zi turli manbalarda “chilpiqqan”, “baland joydagi gulxan”, “marosim o‘tkaziladigan tepa” kabi ma‘nolarga ega deb talqin qilinadi. Ayrim etimologik talqinlarda “chil” (qirq) va “piq” (baland tepa) so‘zlaridan tashkil topgan degan fikrlar ham bor. Bu esa qal‘a qadimdan marosimlar, yig‘inlar va diniy an‘analar bilan bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi.

“Chilpiq qalasining yana bir ilmiy jihati – uning geografik joylashuvi. Qal‘a Orolbo‘yi hududida qadimdan mavjud bo‘lgan karvon yo‘llariga yaqin joylashgan bo‘lib, bu uni nafaqat diniy, balki mintaqaviy aloqa markazlaridan biriga aylantirgan”. Tadqiqotlarda uning atrofidan topilgan ayrim sopol buyumlar, metall parchalari va xo‘jalik izlari bu hududda doimiy harakat va madaniy almashinuv bo‘lganini tasdiqlaydi. Xalq orasida bu inshoot haqida turli rivoyatlar yuradi. Ulardan biriga ko‘ra, bu qal‘ada bir paytlar bir mulozimni sevib qolgani uchun otasining zug‘umidan qochib kelgan malika yashagan ekan.

Malika o‘z sevgilisi bilan qal‘aga suv keltirish uchun Amudaryogacha yerosti yo‘lini qazishgan. Arminiy Vamberi o‘z kundaliklarida chindan ham bu yerosti yo‘li mavjud bo‘lganini ta’kidlaydi. Boshqa rivoyatda uni Chilpiq-Qarotin ismli pahlavon tiklagan. Hatto bu daxmani yovuz shaytonga qarshi kurashuvchi, ezgu niyatli devlar qurgan, degan afsonalar ham uchraydi. Bir paytlar bu hududlar uch ming yillik ulkan sivilizatsiyaga ega bo‘lgan Xorazm davlatiga qarashli bo‘lgan.

Yana bir rivoyatda shunday bayon qiladi: “Afsonaga ko‘ra, qadim zamonlarda keksa odamlarni tog‘larda qoldirib kelish orqali ulardan voz kechish urf bo‘lgan ekan. Bir kun, Chilpiq ismli yosh yigit ham o‘z otasini toqqa olib borishga qaror qilibdi. Tepalikka chiqish yo‘lida u nafas rostdashga qaror qildi. Buni ko‘rgan uning otasi kulib yubordi. Chilpiq so‘radi: “Nega kulyapsiz? Ahir men sizni tepalikda qoldirib kelmoqchimanku?”. Otasi javob berdi: “Men ham otamni tepalikka olib chiqayotib, aynan manu shu yerda dam olgan edim, shu esimga tushib ketdi”. Shundan so‘ng u otasini qoldirib kelish fikridan qaytib, unga o‘z uyida maxfiy tarzda g‘amxo‘rlik qila boshladi”.

Uning bu qilmishi uchun o‘lim jazosiga hukm qilishlari mumkin edi. Oradan bir qancha vaqt o‘tgach, ushbu mamlakatning podshohi xastalikka uchradi. Hamma yoqdan tabiblar olib kelindi ammo, ularning hech biri podshohning xastaligiga davo topa olishmadi. Shunda, Chilpiqning otasi podshoh bir o‘simlikning damlamasidan shifo topishini aytdi.

Chilpiq podshohning oldiga borib, unga bu xabarni yetkazdi. Damlama podshohni tuzatdi va podshoh ushbu ajoyib o'simlikni qayerdan olganligi haqida so'radi. U javob berdi: "Agarda siz mening bir qoshiq qonimdan kechsangiz, men ushbu sirni oshkor etaman". Podshoh rozi bo'ldi va u haqiqatni oshkor etdi: "Bu haqida menga men sirli ravishda g'amxo'rlik qiladigan otam aytdi. Agarda siz bundan xabar topganingizda, meni qatl qilgan bo'lar edingiz". Ushbu voqeadan so'ng podshoh farmon chiqardi: Bugundan boshlab, keksalarni tog'larga tashlab kelinmaydi, balki, ularga o'z ajallari yetguncha g'amxo'rlik qilinadi.

Ma'lumki, Xorazm zardushtiylik dinining ilk markazlaridan biri sanaladi. "Avesto" kitobi ham aynan shu yerda vujudga kelgan, degan taxminlar bor. Shu bois, 2001 yilda O'zbekiston hukumatiining tegishli qaroriga binoan yurtimizda "Avesto"ning 2700 yilligi keng nishonlangan. Qadimgi Xorazm hududida zardo'shtiylar bilan bog'liq bir qator maskanlar, ibodatxonalar qoldiqlari, osori atiqalar aniqlangan. Jumladan o'tgan asrning o'rtalarida arxeolog S.Tolstov boshchiligida Chilpiq tevaragida olib borilgan izlanishlar natijasida bu qal'a qadimgi zardushtiyarning so'nggi manzili - marhumlarning jasadlari qo'yiladigan baland minora ekani ma'lum bo'ldi.

Ma'lumki, zardushtiylik dinida suv, olov, yer muqaddas sanalgan - Shu bois jasadlarni ko'mish, yoqish yoki suvga cho'ktirish qattiq gunoh sanalgan. Insonlar vafot etgach, ularning jasadi ana shunday minoralarda quzg'unlarga, qurt-qumurskalarga yem qilingan. Suyaklar yumshoq to'qimalardan xalos bo'lguniga qadar shu tepaliklarda saqlangan. Zardo'shtiylar e'tiqodiga shu tariqa marhumlarning ruhi poklangan. Keyin esa, suyaklar maxsus idishlar - ostadon (ossuariylar)larga solingan. Chilpiq qal'asining ichki qismida ana shunday ostadonlar saqlanadigan yerto'lalar - nauslar bo'lgan. Olimlarning ta'kidlashicha, bu bino oddiy aholi uchun emas, faqat hukmdor tabaqa va ularning oila a'zolari uchun mo'ljallangan. Ayrim manbalarda bu inshootlar afrig'iyalar davriga V-VI asrlarga mansub ekani aytiladi. Ammo, arxeologik qazishmalar uning yoshi eramizdan avvalga II asrlarga borib taqalishini ko'rsatadi.

Ayni paytda ana shunday ostadonlar O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ekspozitsiyasidan o'rin olgan. Bugungi kunda Chilpiq xalqaro ilmiy doiralarda Orolbo'yi zardushtiy merosining eng yorqin namunalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. UNESCO ekspertlari tomonidan ham ushbu obyektning madaniy ahamiyati yuqori baholangan. Yodgorlik nafaqat arxeologik, balki turistik salohiyatga ham ega. O'zbekiston mustaqillik yillarida Chilpiq atrofida restavratsiya ishlari amalga oshirilgan, yo'l-infratuzilma yaxshilangan, ilmiy ekspeditsiyalar faoliyatini davom ettirmoqda.

Chilpiq qalasi bugungi kunda ham o'zining sirli tuzilishi, qadimiy marosimlar bilan chambarchas bog'liq tabiati, tarixiy qatlamlarga boyligi bilan olimlar, sayyohlar va tadqiqotchilarni o'ziga jalb etadi. U Markaziy Osiyodagi Zardushtiylik madaniy merosining eng qadimiy va noyob yodgorliklaridan biri bo'lib, Orolbo'yi xalqlarining ko'p asrlik madaniy evolyutsiyasini o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Толстов С. П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – Москва: Издательство Академии наук СССР, 1948.

2. Вайнберг Б. И. Археология и древняя история Нижнего Амударья. — Москва: Наука, 1981.
3. Юсупов Д. А. Древняя культура Приаралья и этапы её развития. — Ташкент: Фан, 2010.
4. Брентъес Б. Культура и искусство древнего Хорезма. — Ленинград: Искусство, 1976.
5. Boyce M. Zoroastrians: Their Religious Beliefs and Practices. — London: Routledge, 2001.